O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 19-sentabr | 450-2-0-Q/25 | Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro va Kogon shaharlaridagi jamoat transporti tizimida yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 419-I sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-martdagi PQ–139-son “Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq hamda Buxoro viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari B.Axmedovning 2025-yil 2-maydagi bildirgisiga asosan Buxoro va Kogon shaharlaridagi umumiy foydalaniladigan jamoat transportida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish, jamoat transportida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quydagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-martdagi PQ–139-son “Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaroriga muvofiq jamoat transportida yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tariflar joriy etilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan doirada belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshirilishi qayd etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro va Kogon shaharlaridagi jamoat transporti yo‘nalishlarida (avtobus va yo‘nalishli taksi) qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining quyidagi cheklangan tariflari belgilansin:

a) bir yo‘lovchi qatnovi uchun cheklangan tarif – 3 000 (uch ming) so‘m. Bunda bir yo‘lovchi qatnovi uchun 1 (bir) martalik to‘lov elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirilganda rag‘batlantiruvchi chegirma qo‘llanilgan holda – 2 000 (ikki ming) so‘m undiriladi;

b) bir yo‘lovchining bagajini tashish bo‘yicha xizmat uchun – 4 000 (to‘rt ming) so‘m;

d) qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif – 2 000 (ikki ming) so‘m.

e) Elektron to‘lovlarni amalga oshirishda amaldagi kunlik va oylik tariflarga qo‘shimcha ravishda qatnovlar sonidan kelib chiqib, ko‘p martali tarif rejalari 1-ilovaga;

f) Elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar miqdori 2-ilovaga asosan belgilansin;

3. Buxoro viloyati transport boshqarmasi (F.Rajabov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, ikki kun muddatda qonunchilik hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Buxoro viloyatihokimining 2024-yil 25-iyundagi 293-2-0-Q/24-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e′lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining o′rinbosari J.Arashov hamda transport boshqarmasi boshlig‘i F.Rajabov zimmalariga yuklansin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**

Buxoro viloyati hokimining
2025-yil 19-sentabrdagi
450-2-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Elektron to‘lovlarni amalga oshirishda amaldagi kunlik va oylik tariflarga qo‘shimcha ravishda qatnovlar sonidan kelib chiqib, ko‘p martali

TARIF REJALARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni		Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	“AV” avtobus, elektrobus - aholi uchun*	1	5	-	7500
		5	22	22	33000
		7	31	-	47000
		10	44	44	67000
		15	66	66	101000
		20	88	88	135000
		30	130	130	20000
		90	390	-	600000
		180	780	-	1201000
		365	1582	-	2435000
2.	“N” avtobus, elektrobus - pensionerlar va nogironlar uchun**	1	5	-	3800
		5	22	22	16000
		7	31	-	23000
		10	44	44	33000
		15	66	66	50000
		20	88	88	67000
		30	130	130	100000
		90	390	-	300000
		180	780	-	600000
		365	1582	-	1210000
3.	“T” avtobus, elektrobus - talabalar uchun**	1	5	-	3800
		5	22	22	16000
		7	31	-	23000
		10	44	44	33000
		15	66	66	50000
		20	88	88	67000

		30	130	130	100000
		90	390	-	300000
		180	780	-	600000
		365	1582	-	1210000
4.	“O‘” avtobus, elektrobus - o‘quvchilar uchun**	1	5	-	3800
		5	22	22	16000
		7	31	-	23000
		10	44	44	33000
		15	66	66	50000
		20	88	88	67000
		30	130	130	100000
		90	390	-	300000
		180	780	-	600000
		365	1582	-	1210000

Izoh:

*) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*2000-23%;

**) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*2000-23%-50%, bunda:

X – transportda qatnovlar soni;

2000 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan to‘liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan, chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo‘llanadigan imtiyoz.

***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida” 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli qaroriga asosan yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti - avtobus va metropolitendan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari orqali amalga oshirilganda almashish

TARIF REJALARINING NARXLARI*

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashish turlari	Tarif rejalarining narxi, (so‘m)	
1.	1 soatlik	birinchi avtobusda to‘lov	2000	**1000

	A+A+A+A	ikkinchi avtobusda to‘lov	1500	**500
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0	0

Izoh:

* mazkur tarif rejalarini narxi faqat bir transport turi uchun transport kartalari orqali to'lov amalga oshirilganda qo'llaniladi

Izoh: Yangi tarif shartlari.

** Imtiyozli transport kartalaridan foydalanuvchilar (pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, talabalar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar hamda texnikumlar o‘quvchilari) uchun 50% chegirma qo‘llaniladi. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-sonli "Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida"gi 2012 yil 17-sentabrdagi 273-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi qarorining 3.1.-bandi)

Buxoro viloyati hokimining
2025-yil 19-sentabrdagi
450-2-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar
MIQDORI

T/r	Tarif rejalarining nomlanishi	To‘lov tizimi	Tarif rejalarining narxi, (so‘m)	
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	2000	**1000
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1500	**500
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0	0

** Imtiyozli transport kartalaridan foydalanuvchilar (pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, talabalar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar hamda texnikumlar o‘quvchilari) uchun 50% chegirma qo‘llaniladi. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-sonli "Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida"gi 2012 yil 17-sentabrdagi 273-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi qarorining 3.1.-bandi)